

Xodjiyeva Dilfuza Rustamovna,
Buxoro davlat universiteti
tayanch doktoranti
d.r.xodjiyeva@buxdu.uz

MUSIQA VA SAN'AT TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING MUSIQIY-BADIIY DIDI: JAHON TAJRIBASI VA ILMIY IZLANISHLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada, musiqa va san'at maktablarida fortepiano sinfi o'quvchilarining musiqiy-badiiy didini shakllantirishga oid jahon tajribasining ilmiy izlanishlari tahlil qilingan. Shu bilan birgalikda, turli xil xalqaro metodlar, platformalar, musiqiy tizimlar asosida badiiy taffakkur, musiqiy ong va ijodiy idrokni rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy tajribalar namunasi keltirilgan.

Kalit so'zlar. ISMYE, big data platformasi, sudzuki metodi, psixologik barqarorlik, improvizatsiya, didaktik o'yinlar, intonatsion tizimlar.

МУЗЫКАЛЬНО-ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ВКУС УЧАЩИХСЯ В МУЗЫКАЛЬНОМ И ХУДОЖЕСТВЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ: МИРОВОЙ ОПЫТ И НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье проанализированы научные исследования мирового опыта по формированию музыкально-художественного вкуса учащихся фортепианного класса в музыкальных и художественных школах. Наряду с этим представлены примеры практического опыта, способствующие развитию художественного мышления, музыкального сознания и творческого восприятия на основе различных международных методов, платформ и музыкальных систем.

Ключевые слова: ISMYE, платформа Big Data, метод Судзуки, психологическая устойчивость, импровизация, дидактические игры, интонационные системы.

MUSICAL AND ARTISTIC TASTE OF STUDENTS IN MUSIC AND ART EDUCATION: WORLD EXPERIENCE AND SCIENTIFIC RESEARCH

Annotation. This article analyzes scientific research on the global experience of developing the musical and artistic taste of piano class students in music and art schools. In addition, it presents examples of practical approaches that contribute to the development of artistic thinking, musical awareness, and creative perception based on various international methods, platforms, and musical systems.

Keywords: ISMYE, Big Data platform, Suzuki method, psychological resilience, improvisation, didactic games, intonation systems.

Musiqa va san'at maktablarining ta'lim jarayonida fortepiano sinfi o'quvchilarining musiqiy-badiiy didini shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Forteplano amaliyotida, cholg'u asbobining o'ziga xosligi va undagi ijro texnikasini boshqa fanlar (musiqa tarixi, musiqa nazariyasi) bilan bog'liqlikda amalga oshirish, musiqiy-badiiy didni shakllantirish jarayonida muhim ekanligi aniqlandi.

Fortepiano ijrochilik san'ati ichki qonun qoidalari va o'rganish estetikasi, nafaqat ijrochilik mahoratini, shuningdek, insonning badiiy, estetik, musiqiy hissiyotlarini uyg'otish orqali fortepiano o'quvchilarida musiqiy-badiiy tafakkurni shakllantirish zaruratini bildiradi.

Mazkur maqolada, o'quvchilarning musiqiy-badiiy didi va ijodiy tafakkurini shakllantirishning pedagogik, estetik va psixologik xususiyatlari o'rganilib, mavzuga oid **xalqaro** tadqiqotlar tahlili keltirilgan.

Fortepiano amaliyoti paytida o'quvchi asarni ijro etish, notani vaqroqdan o'qish, boshqa cholg'u asbobiga jo'r bo'lish qatorida, asarda o'z hissiyotlarini ifodalay olishi, eshitib ijro etganda o'z nuqtayi nazarini orqali obrazga munosabat bildirish, musiqiy-badiiy didni shakllantirishda musiqaning estetik va psixologik xususiyatlarini ham o'rganish kerakligini bildiradi.

Dunyoning turli mamlakatlarida musiqa san'atini rivojlantirish maqsadida ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Yevropa va Amerika davlatlarida, pedagogik tizimlarning yangilanishi, yangi metodikalar, innovatsion texnologiyalar kundan-kun takomillashib borilayotgani, musiqiy-badiiy did rivojlanishida muhim ekanligini ko'rishimiz mumkin. Xorijiy davlatlarda musiqa o'qitish tizimida, yagona o'quv reja va dasturga amal qilinmasligini guvohi bo'ldik. Har bir davlatda musiqiy tarbiyalash prinsiplari o'sha millatning madaniy an'analari va pedagogikaning didaktik qonuniyatlariga asoslanadi. Qolaversa, ilmiy-metodik yutuqlar boshqa millatlarning ma'rifiy madaniyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi sababli boshqa xalqlarning musiqa madaniyatini ham o'rganish, maqsadga muvofiqdir.

Xorijiy davlatlarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish borasida olib borilayotgan tadqiqotlar anchagina. Shu sababli, unesko qoshidagi musiqiy tarbiya xalqaro jamiyati (ISMYE) o'z faoliyatini rivojlantirmoqda. Bu tashkilot faoliyatining asosiy shakllaridan biri xalqaro miqyosda o'tkazilayotgan anjumanlar hisoblanadi. Bu anjumanlarni o'tkazishdan asosiy maqsad, butun jahonda yosh avlodni musiqiy tarbiyalash, axloqiy-estetik, badiiy didni shakllantirishda qudratli vosita ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu anjumanda yetakchi tashkilotlar, amaliyotchi pedagoglar, kompozitorlar ishtirok etib, turli mamlakatdagi musiqiy tarbiya tajribalari bilan tanishish imkoniga ega bo'lishadi. Chunki jahonning barcha davlatlarida yosh avlodga musiqiy tarbiya berish asosida badiiy didni rivojlantirish, umumdavlat ahamiyatga ega bo'lib, shaxsni shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Jumladan, tadqiqotimiz jarayonida adabiyotlar tahlili orqali Vengriyada Z.Koday (solfedjio fanini rivojlantirish), Germaniyada R.Myunnix (yallin tizimi), Germaniya-Avstriyada K.Orf (musiqali ijod, metroritmik o'quvini rivojlantirish), Yaponiyada T.Sudzuki (skripka ijrochiligi orqali badiiy didni rivojlantirish), Angliyada Dj.Kerven ("Tonik solfa" tizimi), Rossiyada D.B.Kabalevskiy (musiqa asarlarini idrok etish tajribasini rivojlantirish) [1;133] kabi tadqiqotlar, musiqiy-badiiy didni rivojlantirishda yetakchilik qilishi o'rganildi.

Xalqaro tadqiqotlar tahliliga ko'ra, musiqaning psixologik aspektlari chuqur o'rganilganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, nemis nazariyotchisi Atanazius Kirxer insonning temperamenti va musiqiy didi orasida bog'liqlik mavjudligini ta'kidlagan. Uning fikricha: "Melanxoliklar jiddiy, g'amgin musiqani yoqtirishadi, sangviniklar kuchli qo'zg'aluvchanlikka ega bo'lganliklari sababli raqsona xarakterdagi musiqani, xoleriklar ham shunday musiqani tinglashni xohlashadi, flegmatiklarni esa, ayollarning mayin tovushlari o'ziga maftun etadi" - deydi u. [2;195]

Musiqiy badiiy didni shakllantirishda, eng ko'p tadqiq etilgan soha-musiqiy idrok psixologiyasi bo'lib, rus musiqashunoslari-B.V.Asafyev, B.L.Yavorskiy, Yu.N.Tyulin, L.A.Mazel, E.V.Nazaykinskiy, V.V.Mudeshenskiy, psixologlar-B.M.Teplov, M.V.Blinova va S.N.Belyayevalar bu muammoni o'rganishga ulkan hissa qo'shganlar. Musiqiy qobiliyatlar psixologiyasini chuqur o'rgangan psixolog B.M.Teplov fikricha, musiqa asarinig asosiy mazmuni sezgilar, emotsiyalar va kayfiyatlarda namoyon bo'ladi. Biroq nemis musiqashunosi E.Ganslik musiqaning mazmuni sifatida musiqiy shakllarni tasavvur qildi. Uning fikricha-musiqa hech qanday mazmunga ega emasligi, bu faqatgina tovushlar o'yini ekanligini ta'kidlagan. B.M.Teplovning ilmiy xulosalariga ko'ra musiqaning chuqur mazmunini faqatgina musiqiy bilish emas, balki umumiy bilish vositalari nuqtai nazaridan to'liq anglash talab etiladi. [3;20]

Richard Davidson va Jon Kabat-Zinn kabi olimlarning tadqiqotlarida esa, psixologiya va musiqa birlashganini ko'rishimiz mumkin. Unga ko'ra, musiqa inson ruhiyatiga ta'sir etishi, ijro jarayonida esa, emotsional va psixologik barqarorlikka erishish, didni shakllantirishda katta ahamiyatga ega ekanligini asoslab berilgan. G.M.Tsipin talqiniga ko'ra esa, musiqa asarini idrok etishda barcha psixologik jarayonlar ishtirok etishi jumladan, oddiy sezgilardan boshlab oliy

darajadagi musiqiy intellektgacha barchasi didni shakllantirishda namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin. [4;13]

Mianyang davlatidan Jing Wang fortepiano sinfi o'quvchilari bilan olib borgan tadqiqotida katta ma'lumotlar (big data) platformasini ishlab chiqqan edi. Unga ko'ra, big data texnologiyasi asosida o'qituvchi va o'quvchi individual va guruhli darslardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Big data platformasida-katta hajmdagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, qo'llash, tahlil qilish va baholash kabi vazifalarni bajarishadi. Bundan tashqari, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, o'zaro bir-birini tushunish, o'qitishda individual yondashuvni kuchaytirish maqsadida ishlab chiqilgan platforma hisoblanadi. Ushbu modelga ko'ra, fortepiano darslari jarayonida o'qituvchilar onlayn platformalar yordamida bilim almashinuvi va dars bo'yicha muhokamalar o'tkazishlari mumkin. Bu esa o'z navbatida o'quv jarayonidagi muammolarni aniqlab, o'qitish metodlarini takomillashtirishga olib keladi. Ushbu platformada o'qituvchi o'quvchining ehtiyojlariga javob bera oladigan metoddan foydalanadi. Darsda, faqatgina piano mashqlarini bajaribgina qolmay, improvizatsiya asosida jo'r bo'lish va o'zi kuylab ijro etish qobiliyatini rivojlantirish kabi vazifalar amalga oshiriladi. Ushbu metod vositasida fortepiano o'quvchisida musiqiy-badiiy did shakllanishini ko'rishimiz mumkin. [5;2]

Yaponiyada musiqa darslarining asosiy qismi cholg'u asboblari o'rgatishga qaratilganini guvohi bo'ldik. Ko'zlangan maqsad, o'quvchilarni ijodiy faoliyatda faol bo'lishini ta'minlash va musiqiy qobiliyatli bolalarni rivojlantirishdan iborat. Yapon pedagoglari orasida "**Sudzuki**" metodi juda mashhurdir. Unga ko'ra, ona tili fanining o'qitilishi musiqa tinglab idrok etish orqali amalga oshiriladi. "Sudzuki" tizimida bola o'zi ijro etadigan asarni ko'proq eshitishi, uning musiqiy qobiliyatini yanada rivojlantirishda muhim vosita bo'ladi deb hisoblanadi.

Vengriyada esa, musiqiy tarbiya borasida erishilgan yutuqlar asosan musiqashunos, pedagog **Zoltan Koday** (1882-1967) nomi bilan mashhurdir. Uning musiqiy tarbiya tizimi ommaviylik tamoyili va xalq kuylariga asoslanadi. Koday venger maktablarida "Tonika-sol-fa" metodi asosida o'qitish usulini kiritdi. Koday metodi so'nggi musiqiy tarbiya konsepsiyasi hisoblanadi. Uning ta'limotiga ko'ra, musiqa ta'limini rivojlantirish uslubiyoti bolalar ongini har tomonlama o'rganish orqali amalga oshiriladi. Koday o'qitish tizimi musiqani chuqur o'rganishga asoslanib, umumta'lim maktablarida fortepiano, fleyta va urma cholg'ulardan keng foydalaniladi. Olib boriladigan har kungi mashg'ulotlarda bolalar asosan ritmni his qilish tajribasini rivojlantiradilar. Bolalarda musiqiy fikrlash va badiiy qabul qilish qobiliyatlarini o'rgatish maqsadida ritm, tonallik va intonatsion tizimlarni bosqichma-bosqich o'rgatish musiqiy tafakkur va didni shakllanishida xizmat qilishi tadqiqotlar jarayonida isbotlangan.

Olim **Pyer van Xauve** Gollandiyada Orff va Koday metodlarini o'zaro uyg'unlashtirib, o'zining yangi musiqiy tarbiya tizimini yaratgani adabiyotlarda mavjud. Mazkur tizimga ko'ra, bolalar psixologiyasi va tasavvuriga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, pedagoglar asosan bolalarni **o'yinga jalb etish orqali** musiqiy malakalarni hosil qiladilar. Pyer van Xauve har bir sinf uchun o'zining "Musiqa bilan o'yinlar" deb nomlangan darsliklarini yaratgan. Darsliklarda o'ziga xos didaktik o'yinlar, turli-tuman mashqlar va vazifalar mavjud bo'lib, bola bosqichma-bosqich musiqiy savodxonlikka ega bo'lishi aytib o'tilgan.

Rossiyada taniqli kompozitor, pedagog **D.B.Kabalevskiy** (1909-1982) hozirgi zamon musiqiy tarbiyaga katta hissa qo'shgan. Kabalevskiy ishlab chiqqan tarbiya tizimida bolalar bilim egallashda "xususiylikdan umumiylik" formulasiga amal qilinishini asoslab bergan. Ushbu tizimning asosini "uch kit" ya'ni qo'shiq, raqs marsh tashkil etadi. Mazkur tizim orqali Kabalevskiy bolalarda musiqiy badiiy didni shakllantirishni maqsad qilib qo'yg'an. Kabalevskiy tizimida muammoli o'qitish asosiy vosita hisoblanadi. Ya'ni o'quvchilar ma'lum bir asarni o'zlari muhokama qilishi, fikr yuritishi, tafakkurni rivojlantirishi nazarda tutilgan.

Xeynrix Noyxaus esa, fortepiano pedagogikasida "tasavvur kuchi orqali eshitish" tushunchasini ilgari surgan olim hisoblanadi. Noyxaus xalqaro ahamiyatga ega pianistlardan bo'lishiga qaramasdan uni hamma yaxshi pedagog sifatida taniydi. "Fortepiano ijrochilik san'ati haqida" asarining muallifi. Aynan Noyxausning ijrochilik faoliyati-musiqiy asarga sadoqat g'oyasi, ijrochining ijodiy va individualligi ifoda topadigan jarayonning ajralmas qismiga

aylanadi. Noyxausning estetika va talqin haqidagi qarorlari tahlil qilinganda “asar” va “shaxsiylik”-bu qarama-qarshi kuchlar emas, balki bir-biriga bog‘liq, o‘zaro harakatda bo‘ladigan elementlar sifatida qaraladi. X.Noyxaus asarni obrazli idrok etish, har bir notaning emotsional ifodalanishini isbotlagan. Unga ko‘ra, o‘quvchining musiqiy didi asarni qalb bilan his etish orqali rivojlanadi. [6;15]

Tadqiqotimiz jarayonida shuni guvohi bo‘ldikki xalqaro tadqiqotlar quyidagilarni ta’kidlaydi:

- emotsional va psixologik barqarorlikka erishish orqali musiqiy badiiy didga ega bo‘lish;
- improvizatsiya va ijodkorlikni erta yoshdan shakllantirish asosida jo‘rnavozlik va o‘zi kuylab ijro etish qobiliyatini shakllantirish;
- didaktik o‘yinlar orqali musiqiy-ritmik his-tuyg‘u hosil bo‘lishi;
- musiqiy tafakkur va didni shakllantirishda ritm, tonallik va intonatsion tizimlarni bosqichma-bosqich o‘rgatish;
- xalq kuylari asosida musiqiy fikrlash va badiiy qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish orqali musiqa va san‘at makabi o‘quvchilarning musiqiy-badiiy didini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G.Sharipova, G‘.Najmetdinov, Z.Xodjayeva. (2020) Musiqa o‘qitish metodikasi va maktab repertuari. Darslik. Andijon. B.-133
2. Шестаков В.П. От этоса к аффекту. М., 1975. С.-195
3. A.Baxriyev.(2011) tinglash faoliyati misolida MONOGRAFIYA. Toshkent, Fan nashriyoti. B.-20
4. A.R.Baxriyev. Maktab repertuari asosida 5-7 sinf o‘quvchilarida musiqiy tinglovchilik madaniyatini rivojlantirish. Pedagogika fanlari doktori (DSc) disser..avtoref..Toshkent – 2022. B.-13
5. Jing Wang 2021. Innovative Research on the Teaching Mode of Piano Group Lessons under the Background of Big Data. Journal of Physics: Conference Series. p.-2-3
6. Maria Razumovskaya. Heinrich Neuhaus: Aesthetics and Philosophy of an Interpretation. A thesis submitted to the Royal College of Music (London) For the degree of Doctor of Philosophy. 2014. P.-15.